# HUDUDLARNING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA INVESTITSION JARAYONLARNI BOSHQARISHNING AHAMIYATI

**Umarova Go'zal Sabirovna**
O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Received: 16.08.2025
Revised: 17.08.2025
Accepted: 19.08.2025
**Key words:**
hududlar moliyaviy barqarorligi, investitsion jarayonlar, investitsiya boshqaruvi, moliyaviy barqarorlik, investitsiya muhitini yaxshilash, moliyaviy resurslar.

**Abstract**
Ushbu maqolada hududlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda investitsion jarayonlarni boshqarishning ahamiyati tahlil qilinadi. Investitsiyalar hudud iqtisodiyotining rivojlanishida muhim omil bo'lib, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Maqolada investitsion jarayonlarni samarali boshqarish usullari, moliyaviy resurslarni taqsimlash va investitsiya muhitini yaxshilash yo'llari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, hududlararo investitsiya faoliyatini rag'batlantirish, xavflarni kamaytirish va barqaror moliyaviy o'sishni ta'minlash bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Investitsion jarayonlar nobarqaror bo'lib doimo bir xil ko'rinishda bo'lmaydi, bu esa iqtisodiy bo'lmagan omillar bilan izohlanadi. Bundan kelib chiqqan holda investitsiya jarayonlarning monitoringini amalga oshirishda boshqarish qarorlarining kechikishi vaqtini ham hisobga olish zarur.

Investitsion jarayonlarni boshqarishni quyidagilar orqali takomillashtirish mumkin:

- ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning investitsion jozibadorliklari o'rtasidagi farqlarni aniqlash va ularga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillarni aniqlash;
- investitsiyalar hajmini bashorat qilish;
- ko'p variantlilik asosida investitsiya oqimlarini boshqarish mexanizmini ishlab chiqish;
- vazirlik va idoralarning investitsiyalarni boshqarish borasidagi faoliyatlarining asosiy yo'nalishlarini belgilash;

- ijtimoiy-iqtisodiy va investitsion rivojlanishning asosiy yo‘nalishlarini hisobga olgan holda ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar byudjetlarining moliyaviy resurslarini samarali taqsimlash;

- ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning investitsion jozibadorligini baholash asosida kapitalni joylashtirishning asosiy yo‘nalishlari va shakllarini aniqlash.

Respublika mintaqalarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bo‘yicha sezilarli darajada farqlar mavjud bo‘lib, bu holat mintaqalarning investitsion jozibadorligini baholash zaruriyatini keltirib chiqaradi. Vaholanki, mintaqalar bir sub’ekt sifatida bir butun mamlakatga nisbatan keskin farq qiladi, shu nuqtai nazardan alohida mintaqalarning investitsion jozibadorligini baholashda an’anaviy va sinovdan o‘tgan uslubiyotni to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llash noto‘g‘ri bo‘ladi.

Ta’kidlash lozimki, bugungi kunda ishlab chiqilayotgan va amalga oshirilayotgan mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari bir qator uslubiy kamchiliklarga ega bo‘lgan holda mintaqaning moliyaviy, resurslar va tashkiliy salohiyatlaridan, mavjud investitsion mexanizmlar, texnologiyalar va dastaklarning barcha imkoniyatlaridan optimal darajada foydalanish imkoniyatini bermayapti, ya’ni mintaqaga qo‘shimcha investitsiya resurslarini jalb qilish va hududiy dasturlarni moliyalashtirishning nobyudjet manbalaridan foydalanish pastligicha qolmoqda.

Mintaqalarning investitsion jozibadorligi ko‘p jihatdan fan-texnika yutuqlaridan keng ko‘lamda foydalanishni nazarda tutuvchi innovatsion jarayonlar orqali ham belgilanadi. Ya’ni, mintaqalarda innovatsion jarayonlarni rivojlantirish va innovatsiyalardan keng ko‘lamda foydalanish barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Respublika mintaqalarining innovatsion-investitsiya muhitlari turlicha bo‘lib, ularning innovatsion salohiyatlari bo‘yicha toifalarga ajratish mumkin. Mintaqalarning innovatsion salohiyatlarini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar qatoriga

esa quyidagilarni kiritish mumkin:

- mintaqada o‘zlashtirilmagan va foydalanilmayotgan resurslarning mavjudligi;

- sanoat korxonalarida ilmiy-texnik taraqqiyot natijalaridan foydalanish darajasi;

- respublikada jami amalga oshirilgan loyihalarning umumiy sonida mintaqada amalga oshirilgan yirik innovatsion loyihalarning ulushi;

- mintaqadagi tayyor mahsulotlar bozorida raqobat kurashining faolligi;

- yangi texnologiyalarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan respublika va mintaqalar miqyosidagi maqsadli dasturlarning soni.

Bizningcha, yuqoridagilardan kelib chiqqan holda iqtisodiy mintaqalarni quyidagi toifalarga ajratish mumkin:

- innovatsion salohiyatga ega bo‘lmagan mintaqalar, ya’ni jismoniy va ma’naviy jihatdan eskirgan texnologiyalardan foydalanilayotgan va ularni yangilash imkoniyatlari chegaralangan mintaqalar;

- innovatsion salohiyati past rivojlangan hududlar, ya’ni innovatsion texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari mavjud bo‘lgan holda mavjud investitsion-innovatsiya muhiti ta’sirida mintaqada yuqori iqtisodiy o‘sishga erishilmayotgan mintaqalar;

- innovatsion salohiyati rivojlangan mintaqalar, ya’ni innovatsiyalarni real o‘zlashtirish imkoniyati mavjud bo‘lgan va bundan samarali foydalanayotgan mintaqalar;

- yuqori darajada innovatsion salohiyatga ega bo‘lgan mintaqalar, ya’ni faol ravishda innovatsion tadqiqotlar olib borilayotgan va ularni amaliyotga tadbiq etilayogan mintaqalar.

Shuningdek, innovatsion jozibadorlikni belgilab beruvchi va mintaqalardagi investitsion oqimga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni ham alohida ta’kidlab o‘tish lozimdir. Ushbu omillarni ikki guruhga: daromadlilik

omillari va tavakkalchilik omillariga ajratish mumkin:

- daromadlilik omillari – bu mintaqalarning investitsion salohiyatini belgilovchi omillar bo‘lib, investitsion loyihani amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan resurslar (xomashyoning mavjudligi, malakali ishchi kuchining mavjudligi, ishlab chiqarish salohiyatining qay darajada ekanligi, mahsulotlarni sotiladigan asosiy bozorlarga nisbatan mintaqaning tabiiy-geografik jihatdan nisbatan qulay joylashganligi, barcha turdagi infratuzilmalarning rivojlanganlik darajasi) bilan ta’minlanganlik darajasini tavsiflaydi;

- tavakkalchilik omillari – bu mintaqalarning investitsion muhitini (qonuniy-huquqiy bazaning rivojlanganligi darajasi, soliq va bojxona tizimlarining qulayligi, siyosiy holat, xavfsizlik shart-sharoitlari va boshqalar) belgilovchi omillardir.

Mintaqalarning investitsion jozibadorligi asosan yuqorida keltirilgan ikki guruhdagi omillar yoki ikki kompleks omillar – mintaqaning investitsion salohiyati va muhiti ta’sirida shakllangan holda mintaqadagi investitsion faollikni belgilaydi va mintaqaga investitsiyalarni jalb qilishni jadallashtirish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan aytish joizki, mintaqalarning investitsion jozibadorligini oshirish ularga kiritilayotgan investitsiyalar miqdorini ko‘paytirishning asosiy va zaruriy omillaridan biri hisoblanadi.

Biroq, respublika mintaqalari investitsion salohiyatlarining turlichaligi ob’ektiv sabablar bilan, xususan tabiiy-iqlim sharoitlari va transport-geografik joylashuvlarining bir xilda emasligi bilan izohlanadi. Shuning uchun, mintaqalar investitsion faolliklarining asosiy omili sifatida ularning investitsion salohiyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi va mintaqalardagi mavjud ichki imkoniyatlardan kelib chiqqan holda ularning investitsion muhitlarini yaxshilashga asosiy e’tibor qaratilishi lozimdir. Bu esa, quyidagilarni amalga oshirishni talab etadi:

- mintaqaviy investitsion qonunchilikni shakllantirish va rivojlantirish;

- ma’muriy ruxsat beruvchi jarayonlarni soddalashtirish;

- investitsion soliq imtiyozlarini, shu jumladan soliq kreditlarini taqdim etish;

- investorlarga mahalliy hokimliklarning kafolat va kafilliklarini tanlov asosida taqdim etish;

- investitsiya kreditlari bo‘yicha foiz stavkalarini byudjetdan subsidiyalash, davlat hisobida bo‘lgan yer va mulklardan foydalanganlik uchun ijara to‘lovlarini pasaytirish;

- mintaqalarning investitsion imidjini shakllantirish;

- investitsion infratuzilmalarni tashkil etish (kafolat jamg‘armalari, sug‘urta kompaniyalari, biznes-markazlar va boshqalar).